Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari!

# BoysuN

Ijtimoiy - siyosiy gazeta

2025-yil 29-aprel
№ 8 (6447)

http://boysungazetasi.uz/

Gazeta 1932-yil 1-maydan chiqa boshlagan

Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashi va tuman hokimligining gazetasi

**2025-yil — Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili**

## ЭНЕРГИЯ РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ВА ТЕЖАШ ЗАМОН ТАЛАБИ

*Жорий йилнинг 1 апрелида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ёнилғи-энергия ресурсларидан ноқонуний фойдаланиш ва беҳуда сарфланишининг олдини олиш ҳамда энергия самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирларни такомиллаштириш тўғрисида"ги ПҚ-133-сон қарори билан мамлакатимизда энергия ресурсларидан оқилона фойдаланиш, ортиқча исрофгарчиликларнинг олдини олиш ва самарадор муқобил энергия манбаларини кенг тадбиқ қилиш бўйича янги мақсадларни амалга ошириш белгиланди.*

Тан олиш керак, бутун дунёда бўлаётгани каби бугунги кунда саноати, ишлаб чиқариш ва қишлоқ хўжалиги йилдан-йил ривожланиб, аҳолиси тез кўпайиб бораётган Ўзбекистонимизда ҳам энергия ресурсларига бўлган талаб шиддат билан ўсиб бормоқда. Жумладан, 2050 йилга бориб мамлакатимизда энергия ресурсларига бўлган талаб икки бараваргача ўсиши прогноз қилинмоқда. Бу, ўз навбатида муқобил энергия, жумладан, "яшил" энергияга ўтишни тезлаштириш, замонавий энергия тежовчи технологиялардан фойдаланишга ўтиш ва барча турдаги энергия ресурсларини максимал даражада тежашни талаб қилади.

Ушбу мақсадларга эришиш ниятида мазкур қарорга кўра, муқобил энергия ресурсларидан фойдаланишга ўтиш ҳамда энергия тежовчи технологияларни ўрнатиш орқали 2,5 миллиард кВт соат электр энергияни ва 1,1 миллиард метр куб табиий газни иқтисод қилиш режалаштирилган.

Қарор асосида "Атроф-муҳитни асраш ва яшил иқтисодиёт" йилида истеъмолчилар томонидан қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларидан фойдаланиш ҳамда қўшимча 74 мингдан ортиқ объектда жами қуввати 785 мВт бўлган қуёш панелларини ва 9 мингдан ортиқ 1,2 миллион литрли қуёш коллекторларини ўрнатиш ҳисобига 1,6 миллиард кВт соат электр энергиясини тежаш; қуввати 65 мВт дан иборат бўлган 1 мингдан зиёд микро ва кичик гидроэлектрстанцияларни барпо этиш ҳисобига 172 миллион кВт соат электр энергриясини ишлаб чиқариш, шунингдек, бюджет ташкилотларида энергия тежамкор ускуналардан фойдаланишни кенгайтириш ҳисобига 39 миллион метр куб табиий газни тежаш мақсад қилинган. Шу билан бирга Республика ҳудудларида энергия ресурсларини иқтисод қилиш бўйича ташкилий-техник тадбирларни амалга ошириш ҳисобига 730 миллион кВт соат электр энергияси ва 980 миллион метр куб табиий газни иқтисод қилиш белгиланган.

Қарорда белгиланган мақсад ҳамда вазифаларнинг кўлами, долзарблиги ва улар ижроси устидан аниқ назоратни олиб бориш мақсадида қарор ижросини ташкил этиш ва таъминлаш мақсадида республикамизнинг ҳар бир тумани (шаҳри) кесимида идоралараро ишчи гуруҳи ҳамда ҳудудий штаблар ташкил этилиб, айни пайтда улар ўз фаолиятини бошлаган.

Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда муқобил энергия манбаларига ўтиш энергия самарадорлигини ошириш ҳамда аҳолини арзон энергия ресурслари билан таъминлашнинг энг ишончли йўлларидан бири саналади. Жумладан, туманимизда ҳам бугунгача кичик корхоналар ва аҳоли хонадонларига қуёш панеллари ҳамда қуёш коллекторларини ўрнатиш ва фойдаланишга топшириш бўйича бир қатор лойиҳалар амалга оширилиб, маълум бир тажриба яратилган. Демак, юқорида тилга олинган қарорда белгиланган вазифалар ижросини туманимиз миқёсида амалга оширишда мазкур тажрибадан оқилона фойдаланиш, уни аҳоли орасида кенг тарғиб қилиш орқали ижобий натижага эришишнинг имкони мавжуд. Бунда кенг жамоатчиликда "яшил" энергиядан фойдаланиш маданиятини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади, албатта.



Президент қарорида энергия самарадорлиги ҳақида гап кетар экан, хусусан, бу соҳада самарадорликка эришиш учун энергия ресурсларининг беҳуда сарфланиши ва талон-торож қилинишининг олдини олиш борасидаги чора-тадбирлар алоҳида акс этади. Дарҳақиқат, кундалик ҳаёт тарзимиз учун энг зарур эҳтиёжга айланган энергия ресурсларини тежаш, иқтисод қилиш маданиятини шакллантирмай туриб бу соҳада самарадорликка эришиш ҳақида гапириш камлик қилади. Тўғри, қарорда давлат, ҳукумат даражасида амалга оширилиши белгиланган вазифалар, мақсадлар аниқ белгиланган. Бироқ бу борада аҳоли, фуқаролар олдида ҳам вазифа, масъулият борлигини эсга оладиган вақт келди, деб ўйлаймиз. Масалан, ҳар бир фуқаро, оила аъзоси ўз хонадонида ҳеч бўлмаса 10 дона ёритиш ускунасининг 3-4 таси беҳуда ёқиб қўйилганлигини билиб туриб, бу ҳолга бепарво қараши маҳаллангиз, туман-шаҳрингиз, вилоят ёки республика миқёсида миллионлаб киловатт соат энергиясининг ортиқча сарф бўлишига олиб келиши ҳақида кимдир бизга тушунча беришини кутиб яшаяпмиз ҳозир ҳам. Ёки, хонадонларга тортилган ва йиллар ўтиб фойдаланиш муддати ўтган қувурлардан табиий газ сизиб чиқиши ҳолатларига гувоҳ бўлсакда, бу ҳақда газ идоралари мутахассисларини хабардор қилишимиз, ўзимизга ташвиш орттиришдан чўчиймиз, "мендан эмас, давлатдан кетяпти" деган ўй-фикрда бўламиз. Ёки бўлмаса, хонадонимизда яширинча усулда электр тармоғига уланиб, бошқалар ризқини қийишдан, халқ мулкини (албатта, ҳар қандай энергия ресурслари бу — аввало халқ мулки ҳисобланади. Д.О) ўмаришдан уялмаймиз...

Қарорда энергия ресурсларини беҳуда сарфлаш, талон-торож қилишнинг олдини олишга қаратилган аниқ вазифалар доирасида соҳага янги замонавий технологияларни киритишни тезлаштириш қаторида корхона-ташкилотлар, хусусан, аҳоли томонидан энергия ресурсларини талон-торож қилиш, беҳуда сарфлашларнинг олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар ҳам белгиланганлиги ва бу борада ҳудудий ишчи гуруҳлари ҳамда штаб аъзолари олдига ҳам аниқ вазифалар қўйилганлиги, келгусида энергия ресурсларини тежаш соҳасида жиддий чоралар кўрилишини англатади.

Айни пайтда Президент қарорида белгиланган вазифалар доирасида туман ҳокимлиги ва ташкил этилган идоралараро ишчи гуруҳи ҳамда штаб аъзолари ҳамкорлигида манзилли ишлар бошлаб юборилган. Албатта, мазкур ҳамкорлик энг аввало, ташкилот-корхоналар, муассасалар раҳбарлари ҳамда барча даражадаги тадбиркорлик субъектлари томонидан қўллаб-қувватланиши, қарор ижросида улар ҳам масъул эканликларини ҳис қилишлари лозим бўлади. Бойсунда ҳам йилдан-йил йирик энергия ресурслари истеъмолчилари — саноат корхоналари, кичик корхоналар кўпайиб бораётгани, янги турар-жой массивлари, маҳалла ва хонадонлар барпо этилаётгани қўшимча энергия истеъмолини талаб қилаётган бир пайтда мазкур қарорда белгиланган вазифалар ижроси янада долзарблик касб этиши муқаррар. Шундай экан, давлат раҳбари томонидан бу борада олдимизга қўйилган вазифалар ижроси нафақат соҳа мутасаддилари, балки ҳар бир истеъмолчи учун ҳам зарурат бўлиши лозим.

**Даврон ОРИПОВ.**

## "ЎЗБЕКИСТОН – КИТОБХОНЛАР ЮРТИ"

### ШИОРИ ОСТИДА ТУМАНИМИЗДА ҲАМ "КИТОБХОНЛИК ҲАФТАЛИГИ" УЮШҚОҚЛИК БИЛАН ЎТКАЗИЛДИ



*Мамлакатимизда ҳар йили "Ўзбекистон — китобхонлар юрти" шиори остида "Китобхонлик ҳафталиги" ўтказиш яхши анъанага айланган.*

Мазкур анъанага мувофиқ бу йил 21-27 апрель кунларида бутун республикамиз бўйлаб навбатдаги V Республика "Китобхонлик ҳафталиги" бўлиб ўтди.

Тадбирни ўтказишдан мақсад нафақат ёшлар, балки барча қатлам аҳоли орасида китобхонликни ривожлантириш, китобхонлик маданиятини шакллантириш ҳамда кутубхоналар фондларини ошириш, китобхонлар учун олис ҳудудларда ҳам қулай шарт-шароитлар яратишдан иборат. Жумладан, бу йилги анъанавий ҳафталик давомида республикамизнинг барча ҳудудларини қамраб олган мингдан ортиқ турли даражадаги маънавий-маърифий тадбирлар ташкил этилди.

Таъкидлаш жоизки, анъанавий "Китобхонлик ҳафталиги" туманимизда ҳам ҳар йили жуда кўтаринки руҳда ўтказилиб келинади. Жумладан, куни-кеча якунига етган навбатдаги V Республика "Китобхонлик ҳафталиги" туман Ахборот-кутубхона маркази томонидан ташкил этилган иш режага биноан туман ҳокимлиги, Республика Маънавият-маърифат маркази туман бўлими, туман мактабгача ва мактаб таълими бўлими, "Бойсун" газетаси таҳририяти ҳамда бошқа жамоат ташкилотлари ҳамкорлигида кенг китобхонлар ва китобсеварлар аудиторияси фонида ўтказилди.

Республика Ахборот оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) ташаббуси билан ўтказилган тадбирнинг очилиш маросими дастлаб туман Ахборот-кутубхона марказида ўтказилиб, ҳафталик режалар бўйича туман миқёсида бўлиб ўтиши белгиланган маънавий-маърифий тадбирлар тақдимоти ташкил этилди.

Ўтган бир ҳафта давомида марказ ходимлари томонидан мактаблар, мактабгача таълим ташкилотлари ҳамкорлигида жойларда, шунингдек, Ахборот-кутубхона марказида "Ўзбекистон — китобхонлар юрти" шиори остида қизиқарли мазмундаги мушоиралар, китобхонлик мавзуидаги учрашув-семинарлар, маърифий тадбирлар ўтказилиб, кўплаб янги китобларнинг тақдимотлари ташкил этилди. Шунингдек, туман маданият маркази биносида жойлашган кўзи ожизлар кутубхонаси ходимлари ташаббуси билан кўзи ожиз китобхон ва китобсеварлар иштирокида маданий-адабий учрашув ўтказилиб, унда кўзи ожиз ва ногирон фуқаролар орасида китобхонлик тарғиботини янада яхшилашга қаратилган масалалар муҳокама этилди. Шу билан бирга Ахборот-кутубхона маркази ходимлари ҳафталик давомида корхона-ташкилотлар, аҳоли хонадонларида ҳам бўлиб, Президентимиз ташаббуси билан юртимизда китобхонликни юксалтириш борасида амалга оширилаётган ишларнинг мазмун-моҳияти мавзуига қаратилган маърифий учрашувлар, давра суҳбатлари ташкил этилди. (Давоми 4-бетда)

## ЎҚУВ СЕМИНАРИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ

*Мана, бизнинг фуқаролик жамияти бошқарув бўғинида бўлиб ўтадиган маҳалла институтини янгилашда яна бир имконият пайдо бўлди. Мамлакатимиз бўйлаб жорий йилнинг май-июн ойларида фуқаролик йиғини раислигига сайловлар бўлиб ўтади.*



Албатта, галдаги бу жараён ўзининг янгиликларга бойлиги, изчиллиги билан ажралиб туради. Юқорида таъкидлаб ўтилган мулоҳазалар куни-кеча туман ҳокимлиги катта мажлислар залида сайловларга тайёргарлик кўриш мақсадида бўлиб ўтган амалий ўқув семинарида яққол таъкидлаб ўтилди. Яъни, белгиланган кунда, белгиланган вақтда сайловлар ўтадиган жойда ёпиқ-яширин овоз бериш йўли билан йиғилган иштирокчилар ўзларига маъқул халқпарвар, адолатли маҳалла раисини сайлайдилар. Шунингдек, маҳалла фуқаролар йиғини раислари сайловини ташкил этиш ва ўтказишнинг ташкилий жиҳатлари бўйича амалга ошириладиган чора-тадбирлар тартибини бегилашда фуқаролар йиғини раислари сайловини ташкил этиш ва ўтказиш бўйича ишчи гуруҳлар биринчи галда рол ўйнаши турган гап. Ишчи гуруҳнинг ҳар бир аъзоси томонидан ўзига бириктилган кўча, кўп қаватли уйлар ва ҳовлилар аҳолиси билан суҳбат ўтказиб, доимий яшовчи фуқароларнинг фикрини инобатга олган ҳолда фуқаролар йиғини раиси лавозимига номзодларни шакллантиради.

Албатта, сиз ушбу сайлов билан боғлиқ жиҳатларни оммавий ахборот воситалари орқали билиб олган бўлсангиз керак. Куни-кеча туманимизга ташриф буюрган Ўзбекистон маҳаллалар уюшмаси бош мутахассиси Сарварбек Мирзаев, Ўзбекистон маҳаллалар уюшмаси Сурхондарё вилояти бошқармаси бошлиғи ўринбосари Ўктам Алибоев ва Сурхондарё вилояти ҳокимлиги ҳузуридаги фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ходимларининг малакасини ошириш бўйича ўқув курси бўлим бошлиғи Мўмин Соатқуловлар сайловларни ташкил этиш ва ўтказиш билан боғлиқ масалаларни батафсил яна бир карра тушунтириб ўтдилар. Ўқув-семинар қатнашчиларидан Соат Тошбоев, Нодир Мамадиев, Зойир Раҳмонов, Салим Муродов, Бобомурод Шойимов, Ботир Қосимовлар ўзларини қизиқтирган саволлар билан мурожаат этиб, бу борадаги мулоҳазаларини ўртага ташладилар.

Белгиланганидек, фуқаролар йиғини раиси сайловлари туманимизда 1 май куни Дуоба маҳалласида бўлиб ўтадиган сайлов тадбири билан бошланади. Намунавий тарзда ўтказиладиган мазкур сайлов анжумани ҳақида тўғридан-тўғри оммавий ахборот воситалари орқали кенг жамоатчиликка тезкор маълумот бериш белгиланган.

**П.НАЗАРОВ.**

## ТЕМУР САЛТАНАТИ ҚАДРИЯТЛАРГА АСОСЛАНГАН БОШҚАРУВ

*Башарият тарихи жуда кўп буюк саркардалар, ҳоқонлар, императорлар, салтанат эгаларини кўрган. Уларнинг кўпчилиги давлатчилик соҳасида, маълум маънода тарихий зафарларга эришгани, буюк империялар яратиб ўтганлигидан ҳам хабардормиз. Дунёни зир титратган Чингизхон, етти иқлим эгалигига даъво қилган Александр Македонский, Боязид, Напалеон... Бироқ улар орасида Амир Темурнинг шахс ва давлат арбоби, саркарда сифатидаги ўрни алоҳида аҳамиятга эга. Зотан, унинг буюк давлатчилик соҳасида амалга оширган сиёсати унгача ва ундан кейин ўтган салтанатларда такрорланмаган. Шунинг учун ҳам давлатчилик бобида Амир Темур яратган ишлар бетакрордир.*

Тарих бу — инсоният хотираси. Хотирада эса камдан-кам сиймолар абадий қолади. Ана шундай ўлмас сиймолардан бири, шубҳасиз соҳибқирон Амир Темурдир.

Амир Темур 1336 йилнинг 9 апрелида ҳозирги Қашқадарё вилоятининг (Кеш воҳасининг) Хожа Илғор қишлоғида, Муҳаммад Тарағай бек оиласида дунёга келади. Муҳаммад Тарағай ўғли Темурни болалигиданоқ диний ва дунёвий илм олиш, ҳарб санъатини ўрганиши учун замонасининг энг машҳур кишиларига шогирдликка беради. Натижада устозларининг саъй-ҳаракати билан Темурбек ўн ёшидаёқ Қуръони каримни мукаммал ўрганиб, ҳофизи Қуръон даражасига етади. Айниқса, унинг ҳарб санъати ва илмига бўлган иштиёқи жуда баланд эди. Кейинчалик, ҳарбий юришлардаги катта муваффақиятлари ҳақида гапирганда у ҳамиша ҳаётидаги илк устозларини фахр билан эслаган. Ҳатто, у улкан зафарлардан қайтган чоғларида ҳам туғилган юрти Кешга сафар қилиб устозларидан ҳол сўрагани, уларни моддий-маънавий қўллаб турганлигини хотираларида ёзиб қолдирган. Айниқса, ҳарб илмидан дастлабки устозининг унга ҳар икки қўлда қилич билан жанг қилиш санъатини ўргатгани уни жанггоҳларда бир неча бор муқаррар ўлимдан сақлаб қолганлигини ҳамиша такрор-такрор эслашдан чарчамаган.

(Давоми 2-бетда)



# ТЕМУР САЛТАНАТИ ҚАДРИЯТЛАРГА АСОСЛАНГАН БОШҚАРУВ

(Боши 1 -бетда)

Темурнинг ҳаёти силлиқ кечмаган. У дунёга келган даврда Мовароуннаҳрда ижтимоий, сиёсий ҳаёт жуда оғир эди. Чингизийларнинг давлатчилик сиёсати ҳали синмаган, бутун мамлакат уларнинг тасарруфида, бироқ улкан империя чок-чокидан сўкилаётган, ўзаро уруш-низолар, турли уруғлар, беклар ўртасида ҳокимият талашишлар бошланган эди. Мана шундай оғир бир вазиятда Амир Темур ўз даврининг мавжуд сиёсий, ижтимоий бўшлиқларидан усталик билан фойдалана билди. Мовароуннаҳрда ҳукм сурган тартибсизликлар, беклар ўртасидаги низоларни сабр-тоқат билан таҳлил қилиб, ақл ва иродасини ишга солиб ҳаракат қилди. Узоқ интилиш, беаёв курашлар, беклар ва уруғлар орасида олиб борган сиёсати, уларни бирлаштириш ягона давлатчилик йўлида чингизийларга қарши курашишдек улуғ мақсадларга бошлаб, 1370 йилда илк бор Самарқандда ҳокимиятни қўлга олиб, ўз салтанатига пойдевор қўйди.

Амир Темурнинг дастлабки курашлари узоқ асрлик чингизийлар истилосида бўлиб келган ўз халқини озод қилиш, кейинчалик, буюк давлат қуриш истагида бошланган эди. Шунинг учун ҳам давлатчилигининг аввалиданоқ бошланган ишини босқинчилик, жаҳолат, талон-торожлик пойдеворида эмас адолат, яхшилик пойдеворида амалга оширишга ҳаракат қилди ва бу йўлда қон билан эмас, адолат билан деган тамойилни танлади. Кейинчалик бу сиёсат унинг бутун империясида барча ишда “Куч-адолатда” мазмунидаги қатъий талабга айлантирилди. Буюк Темур ўзининг бутун фаолияти давомида ўзи ҳам мана шу талабга амал қилди ва саркардаларидан давлатни бошқаришда бунга амал қилишни қатъий талаб қилиб келди. Муҳими, Амир Темур ўз давлатида, буюк империясида бу тамойилга илм билан эришишга доимо интилди. Кейинчалик у ўзининг “Темур тузуклари”да ва бошқа хотираларида бу ҳақда тўхталиб: “Менгача Ислом оламида мавжуд бўлган барча саркардалар, хонлар ўз давлатларини фақат шариат қонунлари асосида бошқарганлар ва уларнинг давлатчиликдаги хатоликлари ҳам шунда эди. Мен эса давлатни бошқаришни, улардан фарқли ўлароқ шариат қонунлари қаторида, асосан дунёвий илмларга асосланиб амалга оширдим. Шунинг учун ҳам менинг давлатим уларникидан мустаҳкам ва сиёсатим уларникидан бардавом бўлди”, дея эслайди.

Дарҳақиқат, буюк Соҳибқирон бу тамойил ва тартибга бутун умри ва фаолияти давомида қатъий амал қилди. Унинг ўзи ёзиб қолдирган хотиралари ва тарихий манбалардан маълумки, Амир Темур баъзи бир ғарб сиёсатчи ва тарихчилари таъкидлаганидек, жоҳил босқинчи, вайронкор бўлмаган. У ўзидан аввал ўтган жаҳонгирлардан фарқли ўлароқ ўз империясини кенгайтириш, давлатни мустаҳкамлаш йўлида қилган барча ҳарбий юришлари давомида забт этган шаҳарлар ва қасабаларни тўғридан-тўғри вайрон, халқни қирғинбарот қилмаган. Аксинча, унга ихтиёрий таслим бўлган, унинг давлатчилигини тан олган мамлакатлар, шаҳарларда адолатни тиклаш, обод қилишни талаб қилган. Бу талабга риоя қилмаган маҳаллий ҳокимлар, саркардаларни жазолаган. Айниқса, ҳатто маълум бир ҳудудни забт этиш, босиб олишга тўғри келганда ҳам аҳли илмлар, ҳунармандлар, шоирлар, дин аҳкомларига зарар етказмаслик, уларнинг ҳаётини сақлаб қолишни ўз саркардаларидан қатъий талаб қилган. Бу талабга риоя қилмаган саркардалар, навкарларини ўлимга маҳкум этиш даражасигача жазолаган. Ҳамиша ўзи забт этган шаҳар ёки мамлакатда қиладиган энг биринчи иши аввали шу ернинг олимлари, шоирлари, ҳунармандлари ва дин аҳкомлари билан машварат ўтказиб, уларнинг фикрларини эшитиш бўлган. У ўзи забт этган ҳудудлардаги бошқарувни энг аввало, маҳаллий раҳнамоларга топшириш қаторида ҳокимиятни тинч йўл билан бошқариш, оддий халққа зулм етказмасликни талаб қилган. Амир Темур ўз қаламравида бўлган ҳудудларда тинчлик сақлашга алоҳида эътибор берганлигининг яна бир факти сифатида унинг ҳукмронлик даврида бутун империя ҳудудида йўллар қароқчилардан тозалангани, карвонлар, карвонсаройларга қилинган ҳар қандай ҳужум қаттиқ жазоланиши жорий қилингани билан асослаш мумкин. Тарихнависларнинг ёзганларига кўра, Темур даврида қароқчилик, босқинчилик ҳолатларига бутунлай барҳам берилган экан. Ҳақиқатан ҳам, бу дунё давлатчилиги тарихида учрайдиган камдан-кам ҳолатдир.

Амир Темурнинг давлатчилигимиз тарихида қолдирган яна бир улуғ иши ҳар қандай давлат маънавият, маърифат ҳамда бунёдкорлик асосидагина мустаҳкам бўлиши тамойилини мерос қолдирганидир. Дарҳақиқат, бутун ҳаёти ва фаолияти ҳарбий юришларда ўтган соҳибқирон ўз давлатидаги ҳар бир вилоят, қасаба, ҳар бир шаҳарни обод гўшага айлантиришга, нафақат сарой аҳли, балки оддий аҳоли ҳам илм-маърифатли бўлишига интилди. Унинг шаҳарларни обод этиш, қайта қуриш, ерларни ўзлаштириш, сув чиқариш борасидаги амалий ишларининг изини биз бугунги кунда ҳам Самарқанд, Бухоро, Шаҳрисабз каби шаҳарлардаги темурийлар давридан қолган осори-атиқалар мисолида кўришимиз мумкин. Айниқса, унинг мамлакат пойтахти Самарқанд ҳамда туғилган юрти — Кеш, бугунги Шаҳрисабзни обод қилишдаги ишларини бошқа жаҳонгирлар фаолиятида камдан-кам кўрамиз. У бутун дунёдан энг улуғ олимлар, шоирлар, уста-ҳунармандларни Самарқанд, Бухоро, Кеш каби шаҳарларга йиғиб, уларнинг саъй-ҳаракатлари билан ўз давлати — империясини маънавий жиҳатдан ҳам энг бой давлатлардан бирига айлантирди. Унинг бошқаруви даврида Мовароуннаҳрда хаттотлик, китобатчилик мислсиз равишда ривожланди. Шахсан Амир Темур ўзи бош бўлиб, давлат ғазнаси ҳисобидан энг машҳур илмий, адабий ва диний китобларни чоп этиш, кутубхоналар ташкил этишни амалга оширди.

Биз, бугунги авлод вакиллари улуғ саркарда, давлат арбоби, соҳибқирон Амир Темур бобомиздан ҳар қанча фахрлансак арзийди. Афсуски, баъзида бўлса-да, бизнинг тарихимиз, маданиятимизни менсимовчи, ундан узоқда бўлган кимсалар томонидан Амир Темур шахсига, унинг давлатчилик маҳоратига соя солишга ҳаракат қилувчи кимсаларга қарши ўлароқ Амир Темур билан боғлиқ тарихимизни чуқур ўрганишимиз, уни бутун дунёга фахр билан ёйишга интилишимиз лозим. Зеро, Амир Темурдек етти иқлимни идора қилишга илми, маҳорати, давлатчилик сиёсати ета олган шахс дунёда жуда саноқли ва Амир Темур сўзсиз уларнинг аввалида туриши бизга бугун ҳам маънавий куч бериб туриши биз учун шараф.

**Сурайё ГАЗИЕВА,**
**Республика Маънавият ва маърифат маркази Бойсун туман бўлими раҳбари.**

**Наргиза БОЙМУРОДОВА,**
**Термиз Давлат университети ўзбек филологияси факультети ўзбек тилини ўқитиш йўналиши 4-курс талабаси.**

# ҚИНҒИР ИШНИНГ ҚИРҚ БАЛОСИ

## ЁХУД ҚИММАТГА ТУШГАН МАНСАБ СОХТАКОРЛИГИ ВА ФИРИБГАРЛИК ҲАҚИДА

**Нафс балосига берилишнинг оқибати ҳеч қачон яхшилик билан тугамаган. Айниқса, нафси ҳакалак отган кимса катта бир корхонада масъулиятли жавобгар шахс лавозимида ишлаётган бўлса, бу балонинг касри фақат унинг ўзигагина эмас, ишлаб турган жамоаси, қолаверса, бутун жамият, давлат учун ҳам жиддий оғриқли из қолдиради.**

Қуйида қилмиши тилга олинаётган икки собиқ масъул шахснинг бири — М.С тумандаги 300 нафар ходим меҳнат қилаётган “Ободончилик” ташкилотида 2021йилдан 2022 йилгача бош ҳисобчи вазифасида фаолият кўрсатган. Унинг асосий иши корхона учун давлат бюджетидан ажратилаётган маблағларнинг ҳар бир тийинини мақсадли йўналтириш, талон-торожликка йўл қўймасликдан иборат эди. Афсус, нафс балосига қуллик ва унинг ортидан орттириб олган яна бир қинғир одат — фирибгарлик устун келиб, у эгаллаб турган вазифасининг масъулиятини унутиб, жиноят кўчасини танлади.

Дастлаб эгаллаб турган вазифасидан фойдаланиб, хуфёна равишда “UZASBO” дастури орқали электрон буғгалтерия ҳисоботларига сохта маълумотлар киритиб, мансаб сохтакорлигига йўл қўйиб, ўзи ва корхонанинг бошқа ходимларига иш ҳақи ва унга тенглаштирилган маблағларни буйруқсиз, буйруқда кўрсатилган фоиздан ортиқча ҳамда таъриф ставкасига нисбатан кўп қўшиб ҳисоблаб, ортиқча маблағлар ажратилишига эришиб, меҳнат фаолияти давомида 278, 9 миллион сўм жуда кўп миқдордаги бюджет маблағларини ўзлаштириш ва растарата йўли билан талон-торож қилади.

Жиноий ҳаракатлари “силлиқ” кечаётганига ишонган М.С энди фирибгарлик йўлига ўтиб, “Ҳар бир оила тадбиркор” дастури доирасида ҳунармандчилик, кулолчилик, тикувчилик ва бошқа йўналишларда имтиёзли кредитлар ажратилаётганлигидан фойдаланиб, АТБ Агробанк Бойсун филиалини алдаб, ўзининг яқин қариндошлари ва танишларидан бўлган 7 нафар фуқароларнинг ҳар бирига 30 миллион сўмдан, жами 210 миллион сўмлик кредит маблағларини ажратилишига эришиб, ушбу маблағларни ўз манфаати учун қўлга киритади. Бундан ташқари М.С такроран фирибгарлик жиноятини содир этган ҳолда ахборот тизимидан фойдаланиб, “Chakana.uz” дастури орқали онлайн шаклда кредит (микроқарз) маблағларини олиш мақсадида ўзга шахсга тегишли шахсга доир маълумотларни қўл телефонидан киритиш орқали АТБ Агробанк Бойсун филиалини алдаб, ўзининг танишлари ва яқинлари номига, кредитни уларнинг ўзлари тўлашини билдириб, айримларнинг ўзларига хабар қилмасдан уларнинг номига кредит маблағларини чиқаришга эришган. Бунинг оқибатида М.С. фиригарлик йўли билан жами 20 нафар фуқаронинг номига чиқарилган 615, 7 миллион сўм жуда катта миқдордаги банк кредитларини қўлга киритган.

Қизиғи шундаки, М.С. ўзининг қисқа муддат давом этган бош ҳисобчилик фаолиятида ўзлаштирган бюджет маблағларини ўмариш “ҳунарини” ўзидан кейин бу вазифани қабул қилган бош ҳисобчи А.С. га ҳам “мерос” сифатида қолдирган шекилли, унинг ўрнига бош ҳисобчилик вазифасини бошлаган А.С. орадан кўп ўтмай ўзининг собиқ ҳамкасбидан қолган дардга йўлиқади. Оқибатида А.С. ҳам муқаддам бу вазифада туриб корхона раҳбарлари-ю, юзлаб ходимларни чув тушириб, давлатнинг кўплаб маблағларини талон-торож қилган “М.С. дан қаерим кам” қабилида иш кўриш пайига тушади. Натижада у 2022 йилнинг март ойидан 2025 йилнинг май ойигача бўлган даврда мансаб мавқеини суистеъмол қилиб, Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг тегишли моддаларида кўрсатилган талабларни қўпол равишда бузиб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 1 апрелдаги “Ободонлаштириш ходимларини моддий рағбатлантиришни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 91-сонли қарори талабларига зид равишда “UZASBO” дастуридан фойдаланган ҳолда электрон бухгалтерия ҳисоботларига сохта маълумотлар киритиб, мансаб сохтакорлигига йўл қўяди. Бунинг оқибати ўлароқ, у жами 847, 6 миллион сўм жуда кўп миқдордаги бюджет маблағларини ўзлаштириш ва растарата қилиш орқали талон-торож қилади. Кейинчалик, суд терговида аниқланишича, ушбу талон-торож қилинган маблағларнинг 108 миллион сўмини А.С. деярли уч йил давомида ўзининг иш ҳақига қўшимча рағбатлантириш сифатида қўшиб ўзлаштирганлиги ҳам аниқланди. Яъни, у ташкилот раҳбарининг электрон калитидан фойдаланиб (аксарият ҳолларда ташкилот раҳбари узоқ муддат Қорақалпоғистонда хизмат сафарида бўлганлигидан фойдаланиб) ойма-ой ўзига 20 фоиздан рағбатлантириш пули ёзиб келган...

Кўриниб турибдики, бир вазифада ишлаб келган икки нафар мансабдор шахс қисқа муддатлик фаолияти давомида мансаб сохтакорлиги ҳамда фирибгарлик жинояти ортидан давлат хазинасига 1 миллиард сўмдан ортиқ зарар етказиб, бюджет маблағларини талон-торож қилганлари етмаганидек, ўттиз нафарга яқин ишсиз фуқароларни чув тушириб, улар учун ажратилган банк кредит маблағларини ҳам ўз шахсий манфаатлари йўлида ўзлаштириб юбордилар. Тўғри, суд жараёнида фирибгарлар тўрига илинган аксарият жабрдийдалар “агар жиноятчилар уларнинг номига олинган кредит маблағларини сўндирсалар” уларга нисбатан даъволари йўқлигини ҳам таъкидлаб ўтдилар. Бироқ, шуниси аёнки, давлат хазинасидан ўзлаштирилган миллиарддан ортиқ маблағни қайтариш шарти елкасида турган фирибгарлар 30 нафар жабрдийда фуқаронинг бу талабини қондириши, бизнинг назаримизда, тераакнинг устида қумғонда чой қайнатишдек гапга ўхшаб турибди...

Ҳар икки фирибгарга тегишли жиноят ишининг деярли саккиз ой давом этган тергов ва суд жараёнларига оид тафсилотлари ҳақида ҳаттоки бутун бошли “суд очерки”да ҳам батафсил маълумот бериш душвор. Шунинг учун биз кенг жамоатчиликка ишга доир баъзи бир тафсилотлар ҳақида маълумот бериш билан кифояландик. Агар яхшироқ эътибор қилсангиз, жиноят мақсади, моҳияти ва оқибатлари ҳақида газетхонга бошланғич тасаввур бериш учун шунинг ўзи кифоя деб биламиз. Фақат фикримиз сўнггида ҳар икки жиноятчи ўз қилмишларига кўра Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг тегишли моддалари қўлланган ҳолда етти йил муддатга озодликдан маҳрум қилинганлигини илова қилиш қолди, холос. Шунингдек, ушбу жиноят оқибатлари ҳақида қисқача тўхталиш баробарида фуқароларимизни бу каби фирибгарлардан эҳтиёт бўлишга чақириб қолишни лозим топдик. Чунки, иш жойингизда, тадбиркорлик фаолиятингизда, жумладан банк-молия муассасасининг кредит маблағларидан фойдаланиб тадбиркорликни бошлаш жараёнида оз бўлса-да ҳушёрликни йўқотсангиз, ўз ҳақ-ҳуқуқингизни билмасангиз, мансаб сохтакорлари ва фирибгарлар тузоғига осонгина илинишингиз шубҳасиз.

Мансаб сохтакорлиги ортидан бойиш илинжида бўлган, бўлаётган жавобгар шахсларга эса айтмоқчи бўлганимиз шу: жиноят оламига кириш осон, ундан чиқиш эса фақат суд зали орқали бўлади. Иложи бўлса, бу йўлни танламаган маъқул.

**Ж.НИЯЗОВ,**
**Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси бошқарма прокурори.**

# ISH BERUVCHI QACHON MEHNAT SHARTNOMASINI BEKOR QILADI?

**Ba`zida korxona-tashkilot rahbarlari, ya`ni ish beruvchilar tomonidan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini asossiz ravishda buzish, muddatidan oldin bekor qilish hollariga ham guvoh bo`lyapmiz.**

Vaholanki, mehnat qonunchiligida mehnat shartnomalarini muddatidan oldin bekor qilishning aniq asoslari belgilab qo`yilgan bo`lib, bu talablar har qanday darajadagi ish beruvchi tomonidan shartnomaning amal qilish muddati davrida qat`iy boshqarilishi shart. Ya`ni nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko`ra bekor qilish asoslangan bo`lishi kerak.

Quyidagi sabablardan (asoslardan) birining mavjudligi mehnat shartnomasini bekor qilishning asoslanganligini bildiradi:

-texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o`zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o`zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi;

-xodimning malakasi yetarli bo`lmaganligi yoki sog`ligi holatiga ko`ra bajarayotgan ishiga noloyiq bo`lib qolishi;

-xodimning o`z mehnat vazifalarini bir marta qo`pol buzilganligi;

-xodimda yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqining paydo bo`lganligi.

Xodim vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davrida va ta`tillarda bo`lgan davrida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga yo`l qo`yilmaydi. (Korxona butunlay tugatilgan hollar bundan mustasno).

Mehnat shartnomasini xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) uchun bekor qilish intizomiy jazo chorasi bo`lib, u Mehnat kodeksida belgilangan intizomiy jazolarni qo`llash tartibi va muddatlariga rioya etilgan holda amalga oshirilishi kerak.

**Ilhom MANNONOV, Boysun tuman adliya bo`limi Davlat xizmatlari markazi direktori.**

# ОҒУФУРУШНИНГ АЧЧИҚ ҚИСМАТИ

**Гиёҳвандликка ружу қўйиш, уни истеъмол қилиш нафақат фуқароларнинг ҳаёти, балки жамият учун ҳам оғир оқибатларни келтириб чиқарувчи хавфли иллатлардан саналади. Шу боис гиёҳвандликка қарши курашиш, унинг олдини олиш фақат ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимларининг эмас, бутун жамоатчилик олдида турган муҳим вазифа бўлиши лозим.**

Кейинги пайтда ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари томонидан гиёҳвандликка қарши курашга қаратилган профилактик ҳамда тезкор тадбирлар давомида, афсуски, бу йўлга кириб қолган ёшлар ҳам аниқланаётгани, бу борада кенг жамоатчилик ҳамкорлигида тегишли профилактик ишлар олиб бориш лозимлигини кўрсатади.

Жорий йилнинг 5 март кунида жиноят ишлари бўйича Бойсун туман судининг очиқ суд мажлисида фуқаро Баҳодир Жамолов (исм-шарифи ўзгартирилган)га тегишли иш муҳокама этилиб, унга нисбатан тегишли ҳукм ўқилди. Кўнгилни хира қиладиган жиҳати шундаки, эндигина ўттиз баҳорни қаршилаган Баҳодирни суднинг қора курсисига ўтиришига мажбур қилган нарса ҳам айнан гиёҳвандлик балоси эди.

Бойсун туманининг Бибиширин маҳалласида истиқомат қилувчи Б.Жамолов бир-биридан ширин икки фарзанднинг отаси. Ота сифатида унинг асосий бурчи, аслида мана шу гўдакларни тарбиялаш, вояга етказиш ва жамиятимиз учун керак бўлган солиҳ инсонлар қилиб тарбиялашдан иборат эди. Аммо Баҳодир бунинг ўрнига ёмон йўлни танлаб, оила, фарзандлар тақдири ҳақида ўйлаш ўрнига гиёҳванд моддалар истеъмол қиладиган, камига гиёҳванд моддаларни ўзга фуқароларга сотиб, ўзгаларни ҳам заҳарлаш, шу дардга шерик қилишни танлади.

Баҳодир топган бир-икки сўм пулини гиёҳванд моддалар сотиб олишга сарфлаб, эртасини ўйламай юрган кунларнинг бирида — 2024 йилнинг 23 октябр кунига ўтар кечаси Термиз шаҳридаги “Фидокор” кўчаси, 23-уйнинг 1-хонадонида ички ишлар идораларининг тезкор гуруҳи томонидан қўлга олинди. Бу гал у фуқаро “X”га 1,37 грамм миқдоридаги гиёҳванд моддасини бир миллион сўмга сотаётган вақтда ашёвий далиллар билан қўлга олинди.

Дастлабки тергов жараёнларида ўтказилган экспертлар натижаларига кўра Б.Жамолов муқаддам гиёҳванд моддалар истеъмол қилиб юргани ва у махсус даволаш курсларидан ўтиши лозимлиги ҳам аниқланди. Бироқ унинг гиёҳванд моддаси савдоси — олди-бердиси жинояти билан қўлга олингани ва бу жараёндаги унинг ҳатти-ҳаракатларидан хулоса қилиш мумкинки, у муқаддам ўзга фуқароларга гиёҳванд моддаларни сотиш билан шуғулланиб ҳам келган ва бу ҳаракати учун давлатимиз қонунчилигида озодликдан маҳрум қилиш жазолари қатъий белгилаб қўйилган.

Бўлиб ўтган суд жараёнида судланувчи Б.Жамолов ўз айбига иқрорлик билдириб, қилмишидан пушаймонлигини эътироф этиш баробарида унинг аянчли оқибатлари ҳақида ҳам тасаввур қилган бўлса ажабмас. Тўғри, одил суд томонидан белгиланган беш йиллик қамоқ жазосини ўтаб чиқишга у мажбур. Шояд панжара ортидаги бу ҳаёт унга озодликка чиққандан кейинги ҳаётини тўғри изга солиш, оиласи, фарзандларининг бахти, келажаги учун муносиб ота, фаол инсон бўлишга интилиш учун сабоқ, ибрат мактаби бўлса...

**Б.КАРИМОВ,**
**Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси бошқарма прокурори.**

# QANDAY HOLLARDA MUROJAATLARNI KO`RIB CHIQISH TUGATILADI?

**Ma`lumki, qonunchilikda har bir fuqaroning murojaatlarida ko`tarilgan muammolar tegishli tartibda ko`rib chiqilib va ijobiy hal etilib, bu haqda murojaatchini belgilangan muddatdan kechiktirmay xabardor qilish belgilangan. Shu bilan birga tajribada murojaatlarni ko`rib chiqishni tugatish ham mavjud va buning o`ziga xos huquqiy asoslari belgilab berilgan.**

Jumladan, murojaatlarni ko`rib chiqish quyidagi hollarda tugatiladi:

-agar takroriy murojaatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltrilmagan bo`lsa, ilgarigi murojaatlar materiallarida esa tekshiruvlarning to`la-to`kis materiallari mavjud bo`lsa va murojaat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan bo`lsa;

-agar murojaat qiluvchi o`z murojaatini belgilangan tartibda chaqirib olgan bo`lsa yoki uni ko`rib chiqishni tugatish to`g`risida iltimos qilgan bo`lsa;

-yashash joyi, turgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili yoki boshqa rekvizitlari o`zgarganligi to`g`risida o`z vaqtida xabardor qilmaganligi tufayli chaqirishning imkoni yo`qligi sababli murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko`rib chiqish imkoniyati bo`lmaganda;

-murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko`rib chiqish imkoniyati mavjud emasligi sababli, davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxsi tomonidan chaqirilgan murojaat qiluvchi kelmay qolgan taqdirda:

-agar murojaat qiluvchi jismoniy shaxs vafot etgandan so`ng murojaatni ko`rib chiqish huquqiy vorislikka yo`l qo`ymasa, murojaatlarni ko`rib chiqish tugatiladi.

**Gavhar QOSIMOVA,**
**Boysun tuman adliya bo`limi Davlat xizmatlari markazi davlat ro`yxatidan o`tkazish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish xizmatlarini ko`rsatish bo`limi bosh mutaxassisi.**

# O‘RINDOSH ISHLAYOTGANLAR UCHUN NAFAQA TO‘LASH TARTIBI

**Keyingi paytda tuman yuridik xizmat ko`rsatish markaziga fuqarolar tomonidan o`rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to`lanish-to`lanmasligi xususida murojaatlar bo`lmoqda. Bundan anglashiladiki, aksariyat fuqarolarda bu haqda yetarli darajada huquqiy ma`lumot mavjud emas.**

Ta`kidlash joizki, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-oktyabrdagi 297-son qaroriga ilova — “O`rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to`g`risida”gi Nizomning 18-bandiga ko`ra, o`rindoshlar o`rindoshlik asosidagi ish joyi bo`yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi olish, ayollar esa bundan tashqari homiladorlik va tug`ish nafaqalari olish huquqiga ega hisoblanadi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 314-son qaroriga 1-ilova — “Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug`ish bo`yicha nafaqalarni hamda yangi tug`ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga nafaqani tayinlash hamda to`lash tartibi to`g`risida”gi Nizomning 40-bandiga ko`ra, nafaqalar o`rindoshlik asosidagi (shu jumladan, ikki o`rindoshlik asosidagi) ish joyi bo`yicha ham alohida to`lanadi. Sog`likni saqlash muassasi tomonidan berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi o`rindoshlik asosida ish joyidan nafaqa olish uchun asos hisoblanadi.

**N.SHOIMOV, Boysun tuman adliya bo`limi YUXKM boshlig`i.**

QONUN VA IJRO

# TADBIRKOR AYOLLAR UCHUN GAROVSIZ KREDIT

***Mamlakatimizda oila va xotin-qizlarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash, xususan, tadbirkor ayollarning o`z faoliyatlarini yaxshilashiga ko`mak berishga qaratilgan imkoniyatlar yaratilayotganligi bois xotin-qizlarning jamiyatimizdagi barcha sohalarda ishtiroki va faoliyati har tomonlama kengaymoqda.***

Xususan, bunday imkoniyatlar tufayli aholi bandligini ta`minlash, yangi ish o`rinlari yaratish hamda kambag`allikni bartaraf etishda tadbirkor ayollarimizning ulushi yildan-yil ortib bormoqda. Joriy 2025-yilning 14-mart sanasida qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni qo`llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-103-son Qarori xotin-qizlar tadbirkorligini yanada yaxshilashga xizmat qiluvchi yana bir muhim hujjatlardan biri bo`ldi.

Mazkur qarorga ko`ra 2025-yilda xotin-qizlarni qo`llab-quvvatlashning asosiy maqsadli ko`rsatkichlari sifatida 2 million nafar xotin-qizlarning bandligini ta`minlash belgilandi. Shu jumladan, 250 ming nafar xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o`qitish, 250 ming nafar xotin-qizlarni oliy ta`lim bilan qamrab olish, 50 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni sanatoriylarda sog`lomlashtirish hamda ularda tadbirkorlik ko`nikmalarini shakllantirish bo`yicha motivatsion seminarlar tashkil etish belgilangan.

2025-yilning 1-mayidan xotin-qizlarga “yashil loyihalar” va IT sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga, shuningdek, kamida 5 nafar xotin-qizning tadbirkorligini yo`lga qo`yishga ko`maklashgan 1 ming nafar “ustoz” tadbirkorlarga 50 million so`mgacha grant ajratish yo`lga qo`yiladi.

Qarorga muvofiq ijobiy kredit tarixiga ega bo`lgan xotin-qizlarga 100 million so`mgacha garovsiz kredit ajratiladi. Shuningdek, ayol tadbirkorlar tomonidan kredit hisobidan sotib olingan asbob-uskunalar yetkazib berilguniga qadar “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi AJ” tomonidan kafillik taqdim etilishi yo`lga qo`yiladi.

**Nodir MAMADIYEV,**
**Boysun tuman adliya bo`limi boshlig`i.**

# KUYDIRGI — HAYVONLARDAN O`TUVCHI XAVFLI KASALLIK

Odamlarga hayvonlardan o`tadigan va oqibati aksariyat o`lim bilan yakun topuvchi eng xavfli yuqumli kasalliklardan biri — bu kuydirgi kasalligidir.

Kasallik tashuvchisi asosan chorva mollari bo`lib, u hayvonlarda og`ir kechadi va kasallik davrida hayvonlarda tana harorati juda yuqori, ya`ni 40-41 darajagacha ko`tariladi, ichaklarda qon ketish holatlari kuzatilib, bu holat pirovard natijada o`lim bilan yakunlanadi.

Yuqorida ta`kidlanganidek, kasallik odamga asosan hayvonlar orqali o`tadi va bunda kasallangan chorva mollarini so`yish, terisini shilish, go`shtini maydalash va ichki a`zolarini tozalash holatlari asosiy omil bo`lishi mumkin.

Garchand mazkur kasallik odamga hayvonlardan yuqsa-da, odamdan odamga yuqish alomatlari mavjud emas, ya`ni u odamdan-odamga yuqmaydi. Odatda kasallikning odamlarga yuqish alomatlari deyarli yuz foiz vaziyatda teri yarasi (korbunkul) shaklida namoyon bo`ladi.

Ushbu kasallikning insonlardagi dastlabki alomati tana haroratining ko`tarilishidir. Odatda kuydirgi yarasi og`riqsiz bo`ladi, yaraning ustki qismi ko`mir rangiga o`xshash qora po`stloq bilan qoplanadi, yara atrofi qizarib, shish paydo bo`ladi. Kuydirgi yarasi ko`pincha badanning ochiq qismlarida — qo`l, oyoq, bo`yin qismlarida uchraydi.

Bizning mahalliy sharoitimizda odamlarning deyarli har kuni uy hayvonlari bilan kontakda bo`lib turishlarini e`tiborga olib, fuqarolardan chorva mollari parvarishi jarayonida juda ehtiyotkor bo`lishlarini tavsiya qilishning eng maqbul profilpktikasi bu — uy hayvonlarini parvarishlash, saqlash jarayonida ehtiyot bo`lish va kuydirgi kasalligidan himoyalanishning talablariga rioya qilish hisoblanadi. Jumladan, eng avvalo, xonadonlarda va fermer xo`jaliklarda saqlanayotgan chorva mollari muntazam veterinariya ko`rigidan o`tkazilib, kuydirgi kasalligiga qarshi emlanishi shart. Kuydirgi kasalligi belgilari sezilgan zahoti bu haqda veterinariya mutaxassislariga murojaat qilib, ularni holatdan xabardor qilishi kerak. Kuydirgi kasalligi bilan kasallangan yoxud kasallanganlikda gumon qilingan mollarni veterinar ruxsatisiz so`yilishiga aslo yo`l qo`ymang, mollarni faqat maxsus kushxonalarda va so`yish maydonchalarida veterinar ko`rigidan o`tkazilgandan keyin so`ying. Shuningdek, fuqarolardan duch kelgan joydan go`sht sotib olmaslik, go`sht va go`sht mahsulotlarini faqat maxsus go`sht pavil`onlaridan xarid qilishlarni so`rab qolardik. Ayniqsa, xonadonlarda chorva mollarini parvarish qilishda shaxsiy gigiena qoidalariga qat`iy amal qilishni unutmang. Chunki siz chorva parvarishi gigiena talablariga rioya qilib avvalo o`zingizni eng xavfli yuqumli kasallikdan, oila-a`zolaringizni esa bevaqt kelgan tashvishdan asragan bo`lasiz.

**A.KENJAYEV,**
**tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo`limining boshlig`i.**

# ВАЗИФА – ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТЛАРНИ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ

**Дала-боғларимизнинг ям-яшилликка бурканиши ҳаётимизнинг бир безаги деб айтишга ҳақлимиз.**

Зеро, табиатни муҳофаза қилиш, унинг яшиллигини асраш бугунги кундаги муҳим вазифага айланиб бораётгани, қолаверса, муҳтарам Президентимиз ҳам бу борада амалга оширилиши лозим бўлган вазифалар муҳимлигини қайта-қайта таъкидлаётганлари соҳада муаммолар ҳам мавжудлигини кўрсатади.

Гап экологик ҳаракатга бориб тақаларкан, бу соҳада Ўзбекистон Экологик партияси туман Кенгаши аъзолари олдида ҳам туманимизда экологик вазиятни барқарорлаштириш, жумладан яшиллик оламини асраш, чўлланишнинг олдини олиш, атроф-муҳит ва атмосферани турли чиқиндилар ҳамда заҳарли газлардан ҳимоя қилиш борасида ўз дастурий вазифаларини амалга ошириб келмоқдалар. Хусусан, бугун партиямиз аъзолари олдидаги муҳим вазифалардан келиб чиқиб “Яшил макон” лойиҳаси доирасида экилган ниҳоллар, янгидан яратилган яшил ҳудудларни парваришлаш, шаҳар маҳаллалари ва кўчаларида белгиланган жойлардан ташқарида чиқиндиларни тўкишни олдини олишга қаратилган экологик акциялар ўтказиш белгиланган.

Партия туман Кенгаши аъзолари ҳамда партиядан сайланган депутатлар ва фаоллар ҳамкорлигида ўтказилган экорейдлар натижасига кўра айтиш мумкинки, бугунги кунда шаҳардаги мавжуд бозорлар, умумий овқатланиш корхоналари ҳамда жамоат жойларида атроф-муҳит тозалигига нисбатан эътиборсизлик юқори даражада қолмоқда. Бунинг натижасида таъкидланган ҳудудларда қаттиқ ва суюқ чиқиндиларни тўғри келган жойларга тўкиш, яшил ҳудудларни пайҳон қилиш ҳолатларига тез-тез дуч келяпмиз. Бу бир жиҳатдан бугунги кунда ҳам фуқароларда экологик маданиятнинг шаклланмаганлиги оқибатидир. Шундан келиб чиқиб партия Кенгаши фуқаролар орасида экологик маданиятни шакллантиришга доир мавзудаги маърифий тадбирлар, давра суҳбатлари ва экофаоллар билан учрашувлар ўтказиш тадбирларини ҳам белгилаб олдик.

Умуман, бугун экологик тарбия, экологик маданият давримизнинг биз амал қилишимиз мажбур бўлган энг муҳим амалларидан бири эканлигини унутмаслик лозим. Зеро, мамлакатимизда экологик вазиятни барқарорлаштириш нафақат маълум соҳа мутахасисслари, балки барча фуқароларнинг бурчи эканлигини эътиборга олсак, атроф-муҳитни асраш ва авайлашнинг туб моҳиятини янада теранроқ англаган бўламиз.

**Умид БОЙМАТОВ,**
**Ўзбекистон Экологик партияси туман Кенгаши раиси.**

# БИЗНИНГ САМАРАЛИ ТУШУНТИРИШЛАРИМИЗ

***Айни чоғда фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш борасидаги фаолиятларимизни жойларда назорат ишларини ташкил этиш билан олиб боряпмиз.***

Хоҳ мактаб, хоҳ болалар муассасалари, маҳаллаларда бўлсин ёки қурилиши давом этаётган иншоотларда бўлиб ёнғин хавфсизлигини таъминлаш, ёнғин келиб чиқиш хавфини олдини олиш ҳар қандай табиий ҳодисаларга тайёр туриш борасидаги тушунтириш ва суҳбатларимиз кўпчиликда қизиқиш уйғотмоқда.

Шунинг баробарида шаҳар ва узоқ қишлоқ хонадонларига ташрифимиз чоғида уй эгаларига табиий газ ва электр мосламаларидан қай даражада фойдаланаётганлигини назорат қилган ҳолда ис гази, электр ва табиий газ мосламаларини назоратсиз қолдирмаслик бўйича ўтказилган тушунтиришларимиз иш бериб яқин ўртада жиддийроқ кўнгилсиз ҳодиса юз бергани йўқ.

Ҳозир айни баҳор, об-ҳавонинг серёғин келиши туфайли сел келиши ёки кунда момақалдироқ гумбирлаб, яшин чақиши эҳтимоли юзага келиши аниқ. Бу борада ҳам фуқароларимиз эҳтиёт бўлиш чораларини кўриши шарт ва зарур.

**Д.АБДУРАҲИМОВ,**
**туман ФВБ профилактика ва назорат бўлими катта инспектори.**
**С.ЖОВЛИЕВ,**
**ФВБ П ва НБ кичик инспектори.**

**O`zbekiston Respublikasi**

# XORIJIY OLIYGOHLARI SIRTQI TALABALARIGA O`QUV TA`TILI MAVJUDMI?

**Mehnat Kodeksining 385-moddasiga ko`ra, oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tashkilotlarida kechki yoki sirtqi ta`lim shakli bo`yicha o`qiyotgan xodimlarga laboratoriya-imtihon sessiyalarida ishtirok etgan davr uchun ta`tillari beriladi.**

E`tibor qiling, mehnat kodeksining 385-moddasida “Oliy va o`rta-maxsus, kasb-hunar ta`limi tashkilotlari” deyilgan. Bunda, birinchidan, oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tashkilotlarining mulkchilik shaklining ham ahamiyati yo`q. Mehnat kodeksining 385-moddasi nafaqat davlat va xususiy oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tashkilotlariga, balki xorijiylarga ham taalluqli hisoblanadi.

Agar aynan O`zbekiston Respublikasining oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tashkilotlari nazarda tutilganda edi, bu normaga to`g`ridan-to`g`ri ko`rsatilgan bo`lar edi. Masalan, soliq kodeksining 16-bandiga ko`ra soliq to`lovchining quyidagilarga yo`naltirilgan, soliq solinishi lozim bo`lgan ish haqi va boshqa daromadlari: O`zbekiston Respublikasining professional va oliy ta`lim tashkilotlarida ta`lim olish (o`zining, farzandlarining, shuningdek, 26 yoshga to`lmagan erning (xotinning) ta`lim olishi ) uchun to`lov. Mazkur imtiyoz soliq to`lovchining professional va oliy ta`lim tashkilotlarida o`qish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilgan ta`lim kreditlariga (foizlari bilan) qoplashga yo`naltirilgan daromadlariga nisbatan ham qo`llanadi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilsak, Mehnat kodeksining 385-moddasi nafaqat O`zbekiston Respublikasining, balki xususiy, shu jumladan xorijiy oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tashkilotlariga ham taalluqli hisoblanadi.

Mehnat Kodeksining 386-moddasiga ko`ra ishni o`qish bilan birga olib borayotgan xodimlarga kafolatlar va kompensatsiyalar 1-marta tegishli darajadagi ta`lim olayotganda beriladi. Ya`ni, 2-mutaxasislikka o`qiyotgan xodimlarning o`rtacha oylik ish haqi saqlanmaydi. Lekin ichki hujjatlar, mehnat shartnomasi yoki ish beruvchi va xodim o`rtasida tuzilgan alohida kelishuvga muvofiq ta`lim olishga yuborilgan xodimlarga kafolatlar taqdim qilinishi mumkin.

**I.SAFAROV,**
**Boysun tuman adliya bo`limi YUXKM bosh yuriskonsulti.**

# ЧАШМАҲО — МАНБАИ ОБАНД

**Солҳои охир захираи оби ошомидани дар вилоят ва сартосари ҷумҳуриамон хеле кам шудааст. Аз ин боис сокинон аз нарасидани он шикоятҳо мекунанд.**

_Ҳукумати ҷумҳурӣ ин арзу доди сокинони вилоятро ба инобат гирифта, қарор намуд, ки аз захираи оби ҳавзаи дарёи Тўпаланг ба маркази вилоят овардани онро ба нақша гирад. Бо сайъу кўшиши коргарону муҳандисони сохтмончиёни ГЭС-и Тўпаланг ба ин самт қубури андозааш 200 метрaро то маркази вилоят кашида, эҳтиёҷи сокинонро қонеъ карданд. Дар рўзи тантанавӣ худи Президенти кишварамон Шавкат Миозиёев иштирок намуд. Пас саволе ба миён ояд ки оё мо бо ин иқдом талаботи рўзирасонии мардумро пурра қонеъ намудем? Аз рўи ҳисоботи пешкаии оморшиносон афзоиши аҳолӣ дар ҷумҳуриамон бо суръати баланд пеш меравад. Аз рўи баъзе маълумотҳо саршумори аҳолиамон солҳои наздик ба чил миллион хоҳад расид. Агар ин ҳолу кор ба ин тартиб пеш равад, бояд ҳукумат натанҳо муаммои оби ошомиданӣ балки замин, сохтмони манзилҳои истиқоматӣ, таъмини барқу газ ва иҷрои дигар масъалаҳои доғи аҳолиро ба нақша гирифта, дар роҳи иҷрои он пешакӣ омода бошад.

Гузаштагонамон ёдовар шуда мегўянд, ки об-ҳаёт аст. Бидуни он кас наметавонад умр ба сар барад, манзил бино кунад, лаззати ҳаёти пурнишотро чашад. Аз ин хотир, ҳар як шаҳрванд, пеш аз ҳама обро қадр кунад, онро сарфакорона ба кор баранд.

Ҳанўз хурдсол будем, дар мактаб таҳсил мекардем, омўзгори ҷуғрофиямон (Худо раҳматашон кунад) Зайниддин Шерхонов мегуфтанд, ки дар мавзеҳои Бойназар, Тубаки Ўрун, Толли, Ҳайроншеҳӣ, арчазорҳо будааст. Дар сойи Бойназар чанд чашма вуҷуд дошт ва оби он ба дарё ҷорӣ мешуд. Дар қарияҷоти Ҳайроншеҳӣ, Толли ва Қўноқпоя оби чашмаҳо мунтазам ҷорӣ мегашт, моҳиҳои зиёде дошт, ин чашмаҳои мусаффо. Ҳоло аз он на ном мондаасту на нишон. Боре ба тамошои ин мавзеъҳо омада ин сурати ҳоли ҳузнангезро дида, дили кас ба дард омад...

Хаёлҳои ширину рўйин маро ба он солҳои дур мебурд ва пеши худ суол мекардам, чӣ ҳол афтода, ки чашмаҳо яку якбора хушк шуданд? Ку, он гулу гиёҳҳо, алафҳои сергизо? Ба худ ба ҳамин монанд саволҳо медодам, посухи онро дубора аз худ пурсон мешудам.

Мо, айёми бачагӣ, махсусан фасли зимистон, боми хонаҳоро даҳ дувоздаҳ бор аз барфҳои баланд тоза мекардем. Боришот дар баҳорон хеле зиёд меборид. Дар талу теппаҳо ва даштҳо чунон алафи худрўй баланд мегашт, ки ҳарсаворро мепўшонид. Аҷаб таровату зебогие дошт, баҳори он солҳои бачагии мо. Рустаниҳо ипор, ров ва чукрӣ як газ қаду бар мемонд. Лолаарўсакҳо аз замин руста, онро чунон мепўшонид, ки аз тамошои он дили кас аз шодиву нишот болида мешуд. Мо рўи лолаарўсакҳо ғелмезадему хурсандӣ мекардем: аз нишоти баҳор аз гулу гиёҳҳо димоғ кашида лаззати ҷонбахш ба сар мебурдем. Эй кош, он баҳори басаррафта, бо тамоми нишоту сурураш дубора бармегашт? Аз он боришоту барфҳо ҳоло нишон намонда. Солҳои охир ду се барф меборад у халос. Аз он алафҳои сарғизо гулу гиёҳҳо, ипору равҳо ҳоло нишоне намонда. Ҳама яксара нестшуда, гўё ба хок яксон шуда бошанд. Айёми бачагии мо, дар лаби дарё гузашт. Дар ҷое ки гумҳои чуқур арзивуҷуд доштанд, оби зулоли чашмаҳо ба дарё ҷорӣ мешуд. Дар гумҳои чуқур рўзҳои дароз обозӣ мекардем. Ҳар як ин чашмаҳо ба худ ном доштанд: чашмаи Бобасӣ, Ҷалолӣ ва боз чанде дигар бо гузашти айём аз хотирҳо фармўш шуда.

Чанд сол боз роҳсозон ба умеди бунёди роҳ регу шағали дуҷониби соҳили дарёи Дарбандро канданд, дар натиҷа чандин чашмаҳои хурду бузург ғофилан хушк шуданд. Сокинон аз ин кори роҳсозон бетарафӣ зоҳир намуданд ва ба қавле “ту ба ман нарас, ман ба ту нахоҳам расид” гўён бетарафӣ, беэътиборӣ зоҳир карданд. Оби дарё мисли паррандаҳои рамида, аз як ҷониб ба ҷониби дигар раҳгумзада ҷойи аслии хушро гум карданд. Гўё аз дасти бедодгариҳои мо, одамон сари худро ба куҷо заданро надонанд.

Кунун азизон, фикрҳои болоиро ба ёд оред. Анбўҳи арчазоронро буридем, сўхтем, дар натиҷа чашмаҳо, ки манбаҳои обро ғунмекарданд, хушк шуданд. Пас худатон қазоват кунед, аз куҷо барфу борон борад, дашту даманҳо сарсабз монад. Ба ҳамин монанд метавон садҳо мисолҳоро овард, ки боиси камшудани оби ошомиданӣ гаштааст.

Чанд сол қабл Президенти кишварамон барои зиёдкардани манбаи об ва сарсабз нигоҳдоштани диёр ташаббуси “Минтақаи сарсабз”–ро ба миён гузошт. Дар иҷрои ин қарор дар вилоят ва ноҳияи мо, кормандони ҷангал коре накарданд, боиси таҳсин бошад. Ҳама корашон нимкола, охири он вайрона, гуфтаги барин, бо амале дар ин ҷода ҳама корро хаспўш карда ҳам худрову ҳам давлатро фиребиданд. Оё, мо бо ин корҳои хому хатала захираи обро зиёд мекунем? Бо ин усули чӣ сон кор пеш равад? Ҳаргиз, ба он муваффақ нахоҳем шуд. Чӣ бояд кард, ки захираи обро дар кўҳистон то ба таҳдашт зиёд кунем? Ҷавоби он яктост: чашмаҳоро бояд аз нав барқарор кунем. Қарори Президенро қатъиян бекаму кост таъмин кунем.

Ба он хонадонҳое ки дар доманакўҳ истиқомат мекунанд. Барои арчаҳои кўҳи сабзонидан имконият фароҳам орем, то ки онон ба воярасонидани ин мўъҷизаи кўҳӣ онро нигоҳубин кунанд. Дар роҳи амали гаштани ин кор бонкҳои давлатӣ бояд вомҳои бемуз диҳанд, то ки сокинон тавонанд тамоми ҷойҳои муаззафшударо ниҳолӣ арча шинонида ба самти анбўҳи ҷангалзорҳо бипайванданд. Дар ин сурат, чуноне ки гуфтем ҳам захираи об зиёд гардад ҳам сайёҳон ба тамошои он завқманд шуда, ду бораву себора ба саёҳати диёри мо оянд. Ин кор ҳеҷ мушкилие надорад. Дар анҷоми сухан далелеро меорам, барои исботи ин андешаҳо.

Чанд сол қабл аз ин боре сармуҳаррири рўзномаи “Овози тоҷик” Шерпўлод Вакилов ба банда супориш дод, ки дар ноҳияи Узун хоҷагии фермерие будааст, ки аъзоёни он дар 25 гектар замини лалмӣ писта парвариш мекардаанд. Аз таҷрибаи сарвари ин хоҷагӣ Ўрал Кокилов маводе ба рўзнома тайёр бояд мекардам. Аз паи ҷустуҷўи ин хоҷагӣ ва раиси он ба манзили ў омадам.

Заминҳои хоҷагии фермерӣ аз соҳили дарёи Қаратоғ оғоз мешудааст. Доманкўҳи Боботоғ низ аз ҳамин ҷо ибтидо мегирифтааст. Ўралбобо чанд сол дар мактаби деҳа муаллими фанни биология ба чанд сол мудири қисми илмӣ, чанд соли дигар, вазифаи директори мактабро бар дўш дошта, пас аз нафақа дар доманкўҳи Боботоғ 25 гектар замин гирифта, ба фаъроияти хоҷагии фермерии хеш оғоз мекунад. Зиёда аз даҳ сол дар 25 гектар замин боғи пистазорро бунёд мекунад. Дар дохили ниҳолҳо зағир ва ҷав кошта ҳосили хуб ба даст мевардааст. Бобои Ўрал нақл намуд, ки 10 сабзидани ниҳолҳо дар бехи ҳар яки он зарфи пластикиро аз об пуркарда, эҳтиёткорона баста, даҳани зарфро ба миқдори як чакра об реҳтан, воз мекардааст. Дар натиҷа об ба бехи ниҳоли писта рехта он зуд нумўъ мекардааст. Чун ниҳоли писта сарсар сарсабз мегаштааст, пасон ба ин ниҳолҳо дар як сол ду бор об мерехтааст. Чун ниҳолҳо сарсабз гашта, қад кашида ва ба иқлими ин мавзеъ тобавар мегарданд, обмониро қатъ мекардааст.

Бобои Ўрал ба ҳамин тартиб 12-13-сол дар ин мавзеи дашти сўхта, заҳмати дандоншиканро аз сар гузаронида, 25 гектар боғи пистазорро бунёд кардааст. Кас нақлҳои ҷонсўзи ин бобои заҳматиро дида, ба қудрату тавоноии ин марди дарёдил ба ҷуз аҳсану офарин гуфтан чорае надошт. Аҷоиби кор дар он буд, ки ҳамаи ҳамсояҳое, ки дар радифи манзили ў хона бино карда буданд, онҳо низ дар қатори бобои Ўрал боғи писта барпо мекунанд. Дар анҷоми сўҳбат аз бобои Ўрал пурсидам, ки боз чӣ нақшаҳое дорад дар дил? Ў бе ҳеҷ лому мим ба суоли ман чунин посух дод:

—Орзу дорам, ки боғи пистазори хешро то он ҷое ки одамон ин дарахтзори ҳазорсолро несту нобудаш кардаанд, расонида, ба онҳо исбот карданӣ ҳастам, ки табиати несту нобуд шударо дубора эҳё кардан, имкон дорад. Бесабаб нагўянд:

**Ба ҳар коре, ки ҳиммат баста гардад,**
**Агар хоре бувад гулдаста гардад.**

Аз ин хулосаҳо ва таҷрибаи бобои Ўрал Кокилов бешубҳа дарк кардан боваркардан мумкин, ки аз дасти Ҳазрати инсон дар ҳалли ҳар мушкилот чорае ҳаст, агар ў матонати устувор ва хоҳиши қавӣ дошта бошад.

**Нуралӣ РАҶАБ.**

# БУНЁДИ МАРКАЗҲОИ НАВИ САЙЁҲӢ

***Дар оғози соли равон “Дар бораи чораву тадбир барпо намудани марказҳои сайёҳӣ, беҳсозии сохтори соҳаи туризм дар ҳудудҳои кўҳии вилояти Сурхондарё ва хидматрасонии замонавӣ” Қарори Президенти Ҷумҳурии Ўзбекистон қабул гардид, ки дар асоси он дар ҳудуди вилояти Сурхондарё дар ин соҳа дигаргуниҳои куллӣ ба амал хоҳад омад.***

Дар қарори мазкур дар назар аст, ки дар вилоят марказҳои сайёҳии “Сангардак”, дар ноҳияи Сариосиё. “Амонхона” дар ноҳияи Бойсун ва “Оқтепа” дар ноҳияи Ҷарқўрғон бунёд хоҳад шуд.

Вилояти Сурхондарё яке аз вилоятҳои дурдасти Ватанамон маҳсуб буда он бо табиати мафтункораш, гўшаҳои зебоманзараш, обидаҳои таърихиву санъату маданияти ғанияш ва расму анъанаҳои нотакрораш, бо эҷодиёти даҳониаш диққати на танҳо сайёҳони ватанӣ, балки хориҷиро мафтун намудааст. Бад ҳамин васила дар иҷрои қарори мазкур дар деҳаи “Сангардак” ноҳияи Сариосиё ба бунёди Маркази сайёҳии “Сангардак” пойдевор гузашта шуд. Ҳокими вилояти Улуғбек Қосимов бо дуои мўйсафедони пурдону пуртаҷриба хишти аввали ин маҷмўаи сайёҳиро гузошта, ҳини суханрониаш дар бобати аҳамияти соҳаи сайёҳӣ батафсил сухан ронда, ба кори сохтумончиён комёбиҳо орзу намуд. Номбурда қайд кард, ки дар маркази сайёҳи “Сангардак” 615 гектар майдон ҷудо карда шуда, дар он савдову тиҷорат, фароғатгоҳҳои замонавӣ бунёд хоҳад шуд. Гирду атрофи шаршараи афсонавӣ, ки диққати оламиёнро ба худ мутаваҷеҳ сохтааст, барои сайёҳон шароитҳои фароғативу истирҳатӣ бунёд хоҳад шуд.

Дар иҷрои қарори мазкур тариқи платформаи Zoom барои бунёди Марказҳои сайёҳии “Амонхона”-и Бойсун ва “Оқтепа”-и Ҷарқўрғон асос гузошта шуд. Ҳокими вилоят дар ибтикори Маркази сайёҳии “Амонхона” дар ҷамъомада тантанавӣ бо як ҳиссиёти баланд изҳор намуд, ки оби чашмаи Амонхона ба ҳазор дард давост. Бояд ҳар як шаҳрванди ин диёр, оби шифобахш он арчаҳои зебояшро, ки ба ҳусни ин диёри афсонавӣ ҳусну таровати зиёда зам мекунад, онро чун гавҳараки чашм нигоҳбонӣ кунанд. Барои барпо кардани Маркази сайёҳии “Амонхона” 220, 5 гектар майдон ҷудо гардидааст. Чуноне ки ба ҳамаи сокинони диёрамон ва берун аз он маълум аст, оби шифобахши Амонхона ба бемориҳои узвҳои дохилӣ одамон муфид буда, барои сайёҳони дохиливу хориҷӣ шароитҳои мусоид бояд фароҳам оварда, ки он як умр дар хотирашон боқи монад. Манзараҳо тепаву қирҳое, ки арчаҳои сабзпўш онро зебмедиҳанд тамошои он ба кас шодиву нишоти саршорро бедор мекунад. Ин манзараи афсонавиро чунон ҳифз бояд кард, ки он боз ҳам зеботар гардад.

Чуноне ки ба сокинони навоҳиамон маълум аст, солҳои навадуми асри гузашта, дар дохили анбўҳи арчазорон роҳи мошингард гузаронида, садҳо арчаҳоро бурида, ҳусни ин табиати афсонавиро коста буданд. Ҳолдонҳо мегўянд, ки оби ҷонбахши Амонхона солҳои охир кам шудааст. Шояд он аз ҳисоби буридани арчаҳои ҳазорсола бошад. Ин далел аз эҳтимол дур нест. Олимони замони мо, исбот карданд, ки арчаҳои кўҳӣ, махсусан арчаи навъи Зарафшон дар гирду атрофи худ 2,5-3 тонна обро захира карда, бухоршавии онро нигоҳ медорад. Дар ин сурат, оби дар гирдуатрофи арча захирашуда ба поён ҷорӣ гашта, дар куҷое заҳида, ба тимсолои чашмае арзи вуҷуд мекунад ва одамону паррандагон, хазандагон аз оби он нўши ҷон мекунанд. Аз ин лиҳоз, бояд кормандони ҷангал дар гирду атрофи Амонхона, Зовбошӣ ниҳоли арчаро шинонда, то замоне ки чун сарв ба боло қад кашиданаш муҳофизат ва нигоҳубини онро таъмин намоянд, то ки одамон, молҳои шоҳдору реза ба он зиён нарасонанд. Дар ин сурат, захираи об дар маркази сайёҳи Амонхона кам нахоҳад гашт.

Барои бунёди ин маркази сайёҳӣ беш аз 67 километр роҳи танобӣ сохта мешавад. Ҳангоми бунёди ин роҳ сохтмончиён ба ҷои “салла кала”-ро наоранд, онҳо ба мисли сохтмончиёни роҳ арчазорро нобуд накунанд. Ҳангоми иҷрои ин кор бояд ба онҳо низ дастур ва корҳои тарғиботӣ бурда шавад, ки онҳо хатокориҳои ҳамкасбони хешро дубора такрор накунанд.

Агар ин марказҳо бунёд гардад, бегумон ба тараққиёти кишварамон ободии Ватанамон ва истироҳату фароғати сайёҳони дохиливу хориҷӣ бешубҳа кори шоёна ба анҷом мерасид.

**Нуралӣ РАҶАБ.**

# ОИЛАВИЙ КИТОБХОНЛИК ҲАЁТИМИЗ ТАРЗИГА АЙЛАНСА...

**Бойсун Ахборот-кутубхона маркази ходимлари томонидан оилавий кутубхоналарни тарғиб қилиш, хусусан, оилада китобхонлик маданиятини шакллантиришга қаратилган маданий-маърифий тарғибот ишларини олиб боришга алоҳида аҳамият қаратилмоқда.**

Зотан, бу каби ишлар, энг аввало, муҳтарам Президентимизнинг оилада китобхонлик маданиятини шакллантириш орқали ёшлар орасида китобхонликни юксалтиришни йўлга қўйиш тўғрисидаги таклиф ва ташаббусларини ҳаётда рўёбга чиқаришда муҳим аҳамият касб этади.

Аслида хизмат вазифамиз талабидан келиб чиқиб туманимиз маҳаллаларида китобсевар оилалар сонини ошириш борасида саъй-ҳаракат қилиш, маълум бир ижобий натижаларга эришиш биз кутубхоначи-библиографларнинг ҳам бурчимиз. Мазкур йўналишда бугунгача амалга оширилган муайян ишлар пировард-натижасида жамоамиз ходимлари тумандаги энг яхши китобхон оилалар тажрибалари, уларда мавжуд бўлган оилавий китобхонлар фаолияти, китоблар фонди ҳақидаги қизиқарли маълумотлар, фактлар билан бошқа оилаларни ҳам таништириш ва тарғиб қилиш ўз самарасини бера бошлади. Буни кейинги пайтда мунтазам китобхонликни одат қилаётган ва оилавий кутубхоналар ташкил этаётган оилалар сони ошиб бораётганлиги билан изоҳлаш мумкин.

Фаолиятимиз давомида оилавий китобхонлик билан боғлиқ яна бир муҳим жиҳатга ҳам эътибор қарата бошладик. Яъни, айниқса, ёшларни китобхонликка даъват қилиш ва бутун жамиятда китобхонлик маданиятини шакллантиришда ҳеч бир саъй-ҳаракат, ҳеч бир восита оила муҳитида китобхонликни тарғиб қилиш ва амалга ошириш тажрибасига ета олмас экан. Бунинг энг муҳим сабабларидан бири эса ташқи муҳит орқали китобхонликни тарғиб қилишдан фарқли ўлароқ оилада болаларга айнан ота-оналарнинг китоб ўқишга даъват этишдан ва китоб мутолааси шу оила учун фарзанд тарбиясининг муҳим элементи, шарти сифатида қабул қилинганлиги билан боғлиқ.



Ҳақиқатан ҳам, бугун мамлакатимизда ёшларни китобхонликка чорлаш ва уларда китобхонлик маданиятини юксалтиришда турли механизмлар, тажриба ва воситалар ишга солиняпти. Кутубхоналар фондлари ошириляпти, таълим масканлари, маҳаллаларда китобхонликни тарғиб қилувчи маданий-маърифий тадбирлар, турли танловлар ўтказиляпти. Албатта, бу каби тадбирлар ҳам китобхонлик маданиятини шакллантиришда кучли омил бўлаётганлигини кўряпмиз. Бироқ хоҳлаймизми, йўқми бугунги шарт-шароитлар, айниқса, ахборот маконининг беқиёс даражада кенгайгани ва бу маконда яхши жиҳатлар қаторида ёшлар онги, шуурига ўта салбий таъсир қилувчи зарарли манбалар ҳам керагидан ортиқча мавжудлигини эътиборга олсак, китобхонлик маданиятини оилада фарзанд тарбиясининг муҳим элементи сифатида киритиш, шакллантириш китобхонлик борасида биз кутгандан-да яхшироқ самара бериши шубҳасиз. Масалан, бундай муҳитда, бола, айтайлик, кун давомида бажариши лозим ва шарт бўлган таълим дастурларини бажариш, уй-рўзғор ишларига ёрдам бериш, соғломлаштириш машқларини бажариш, дам олиш қаторида китоб мутолааси билан шуғулланиши зарурий эканлигини ҳис қилади, бу машғулотни бошқа кундалик машғулотлари каби бажаришни одат қилади. Қолаверса, ота-она ҳам фарзандларини кундалик китоб ўқиш машғулотларини назорат қилиб, турли воситалар билан уларга мотивация бериш имкониятига эга бўладилар.

Одатда, оилавий китобхонлик ҳақида гап кетганда, аксарият ҳолларда биз бу тажриба ўзга ривожланган мамлакатлар тажрибаси эканлиги ва уни бизда ҳам тарғиб қилиш мақсадга мувофиқлиги хусусида таклифларни кўп эшитамиз. Бироқ, бу фикрлар ўзимизнинг тарихимиз, хусусан миллий-маданий қадриятларимизни яхши билмаслигимиз оқибатида келиб чиққан. Бунга керакли асосни мозийдан истаганча топиш мумкин. Негаки, тарихдан маълумки, аждодларимиз дунёнинг энг китобхон халқларидан бири бўлган. Фарзандларни ҳали эсини билмасидан туриб китобга ошно қилиш, китоб мутолаасига ўргатиш нафақат ўзига тўқ оилалар ёхуд сарой аъёнлари оиласига хос одат, балки оддий оилалар учун ҳам севимли машғулот бўлиб келган...

Бугунги кунда, айниқса, мамлакатимизда “Ҳар бир оила китобхон” механизмини йўлга қўйиш, фарзандларда китобхонлик маданиятини оилада шакллантириш ва ҳар бир оилани китобхонлик учоғига айлантириш учун барча шароит ва имкониятлар мавжуд. Юқорида таъкидланганидек, бу соҳада оилалар ва кутубхоначилар ҳамкорлигини йўлга қўйиш эса энг самарали восита бўлиши мумкин. Муҳими, энг аввало, ёшларимиз китобхон авлод бўлиб етишишлари учун ота-оналар локомотив вазифасини бажаришлари керак бўлади. Бироқ, афсуски, биз ҳозир аксарият оилаларда ота-оналар, айниқса, ёш ота-оналарда мана шундай шижоатни, ташаббусни кўрмаяпмиз. Кўпчилик ота-оналарда эса фақат келгусида олий маълумот олиш истаги бўлган ўғил-қизлар китоб ўқиса бўлди, деган фикрда фарзандларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш билан ишлари бўлмайди. Ваҳоланки, бадиий китоб ўқиш — бу, энг аввало, ҳар қандай кишининг тафаккури, савияси, маданияти, дунёқарашини шакллантирувчи кучли маънавий восита бўлиб, у ёки бу сабаб билан олий маълумот олмаган, бироқ бадиий адабиёт мутолаасини кундалик одатга айлантириб, ҳаётда жуда юксакликларга етишган буюкларга ҳам кўп гувоҳ бўлганмиз. Шундай экан, азиз ота-оналардан фарзандларининг китобхонлик маданиятини оширишга эътиборсизлик қилмаслик, лозим бўлса бу ишда биз библиограф-мутахассислар билан ҳамкорлик қилишга даъват этамиз.

**Робия ЖЎРАЕВА,**
**Бойсун АКМ Абонементлар ва фойдаланувчиларга хизмат кўрсатиш хизмати ахборот-кутубхона технологиялари бўйича мутахассис.**

*Саломатлик*

**Сил касаллиги (туберкулёз) Mucobacterium tuberculosis бактерияси томонидан келиб чиқадиган юқумли касаллик бўлиб, асосан ўпка тўқималарига зарар етказади. Касаллик дунё бўйлаб кенг тарқалган бўлиб, иммунитети заифлашган одамларга таъсир қилади. Бу касаллик бемор одам йўталганида, аксирганида ёки гаплашганда ҳавога чиққан бактериялар орқали соғлом одамга юқиши мумкин.**

Иммунитети сустлашган инсонлар, айниқса, ОИВ билан касалланганлар, диабет, саратон ёки бошқа сурункали касалликларга чалинганлар бу хасталикни осон юқтириши мумкин. Ҳавоси тоза бўлмаган, аҳоли зич яшайдиган ҳудудларда касаллик юқиши хавфи юқори бўлади. Бундан ташқари, организмнинг етарлича озиқ моддалар билан таъминланмаслиги иммунитетни пасайтиради ва силга мойилликни оширади. Сил касаллигининг дастлабки босқичлари кўп ҳолларда сезиларсиз кечади. Бироқ ривожланган ҳолатлар қуйидаги аломатлар билан намоён бўлади: узоқ давом этувчи йўтал, кўкрак қафасида оғриқ, қон тупуриш, тана ҳароратининг узоқ муддат баланд бўлиши, кечаси кучли терлаш, иштаҳанинг пасайиши ва вазн йўқотиш, доимий чарчоқ ва ҳолсизлик.

## СИЛ КАСАЛЛИГИ ХАВФЛИ



Бу хасталикни аниқлашда кўкрак қафаси рентгени, бактериологик текширувлар, полимер занжир реакцияси ўтказилади. Касалликни даволаш узоқ вақт талаб этади. Даволаниш жараёнида дори-дармонлар, антибиотиклар қабул қилиш билан бирга соғлом турмуш тарзини юритиш, тоза ҳаво, жисмоний фаоллик ва гигиена қоидаларига амал қилиш зарур бўлади. Бундан ташқари, оқсилларга бой, витаминларга тўйинган таомлар истеъмол қилиш иммун тизимини мустаҳкамлашга ёрдам беради.

Болаларда сил касаллигини ҳатто ўпка шаклида ҳам ташхислаш қийин. Чунки болалар кам-дан-кам ҳолларда балғам чиқаради-лар, шу сабабли бактериологик текширув учун балғам смеари қўлланилмайди. Ҳолбуки, бу катталарда силни ташхислашнинг асосий усули ҳисобланади. Шунинг учун болаларда силни аниқлашда тизимли ёндашув ва клиник белгилар таҳлилига таянилади. Болалар бу хасталики асосан оила даврасида юқтиришади. Уларда намоён бўладиган асосий белгилар вазн йўқотиш ва жисмоний ривожланишдан орқада қолишдир. Айрим ҳолларда аломатлар оғир шаклда намоён бўлади: 39-40 даражагача бўлган юқори иситма, чуқур летаргия (танадаги кучли сустлик ва лоқайдлик), кам-дан-кам ҳолларда тери ва шиллиқ қаватларда ўзига хос ўзгаришлар кузатилиши мумкин. Болаларда силни ташхислашда асосан қуйидаги асосий омиллар ҳисобга олинади: ҳудуддаги касалланиш даражаси, бола яқинида сил билан касалланган шахснинг мавжудлиги, туберкулин синамасига бўлган реакция, баъзан таёқчалар ажралиши ёки ўзига хос гистологик ўзгаришларнинг аниқланиши.

Кўпгина ҳолларда болаларда сил касаллиги енгил кечади ва ҳатто даволашсиз ҳам ўз-ўзидан тузалиши мумкин. Бироқ келажакда бу хасталик қайталанмаслиги, жиддий асоратлар қолдирмаслиги учун эрта аниқлаш ва ўз вақтида даволаш зарур.

**Норхол ЖУМАЕВА,**
**Сурхондарё вилоят фтизиатрия ва пулмонология маркази олий тоифали шифокори.**

# ADABIYOT BUYUK MA`NAVIY XAZINA

***So`z san`ati — adabiyot nafaqat bilim manbai, balki inson qalbi, tafakkuri, shuurini shakllantirishda muhim ma`naviy vositadir. Asrlar davomida adabyot insonlarning fikrlashi, his-tuyg`ulari va ma`naviy kamoloti uchun beqiyos manba bo`lib xizmat qilgan.***




So`z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy “So`z robitai olamiyondir” deganlarida nafaqat so`zning insonlar orasidagi muloqot vositasi ekanligi, balki so`z san`ati orqali yaratilajak badiiy ijod namunalari ham dunyo ahlini bir-biri bilan ma`naviy bog`lovchi unsur ekanligiga ishora qilgan bo`lsalar ne ajab. Zotan, hazrat Navoiyning asarlarida xalqlar va millatlar do`stligi, birodarligi kabi boqiy qadriyatlar hamisha ulug`langani, vasf etilgani bunga misol bo`ladi.

Adabiyotning insoniyat tarixida tutgan o`rinlaridan biri — bu uning har bir xalq, millat tarixi, madaniyati, milliy urf-odatlari, milliy qadriyatlari, hayot tarzi haqida avlodlarga muhim ma`lumotlarni, badiiylashgan shaklda qoldirishidir. Dunyo adabiyotining buyuk vakillari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulla Qodiriy, Chingiz Aytmatov, Lev Tolstoy, Dostoyevskiy kabi yuzlab, minglab yozuvchi-shoirlar — ijod ahli qoldirgan bebaho asarlarni o`qish jarayonida biz bevosita o`sha asarlar orqali ma`lum bir davr, zamon haqida tasavvurlarga ega bo`lamiz, ma`lum bir xalq va millatning o`tmishi, tarixi xususida qiziqarli ma`lumotlar olamiz. Urf-odatlar, qadriyatlar haqida badiiylashgan tasavvurlar olamiz. Badiiy so`z san`ati — adabiyot tarixi shunchalik bebaho va betakror xazinaki, bu xazinada insoniyat yozishni o`rgangan ilk tarixiy davrdan boshlab bugungacha yig`ilgan ma`naviy boyliklarni bugungi inson tasavvurga sig`dirishning-da iloji yo`q.

Hamonki adabiyot biz uchun mana shunday bebaho qimmatga ega ma`naviy boylik, ma`naviy-tarbiyaviy vosita ekan, uni o`rganish, adabiyotni mutolaa qilish, uning cheksiz ma`naviy xazinasidan o`z bilim bulog`imizni to`ldirish biz kabi yoshlar uchun kundalik yumushga aylanishi kerak, albatta.

Bugun kitob mutolaasini kundalik odatga aylantirish, hayotimizning ajralmas tarzi kabi qabul qilishimiz uchun har qachongidan ko`ra ko`proq imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, bizning mamlakatimizda bu imkoniyatlar davlat tomonidan, Prezidentimiz tomonidan yaratib berilayotgani ayni muddao. Bugun an`anaviy kitobxonlik qatorida hayotimizga zamonaviy axborot texnologiyalarining kirib kelishi adabiyotni, kitob mutolaasini keng ommaga yetkazishni yanada osonlashtirmoqda. Biz yoshlar xizmatida bo`lgan barcha katta-kichik kutubxonalardan an`anaviy kitobxonlikni rivojlantirish qatorida zamonaviy texnologiyalar asosida kitobxonlikni yo`lga qo`yish, jumladan, elektron kitoblar fondini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Dunyo adabiyot xazinalari qatorida kutubxonalar o`zbek mumtoz va zamonaviy adabiyot durdonalari bilan boyitilmoqda. Shunday ekan, biz yoshlar badiiy so`z san`ati mo`jizasi — badiiy adabiyotlar xazinasidan o`z tafakkur olamimizni boyitishga shoshilaylik. Zero, adabiyotga oshno ko`ngil va qalb hamisha uyg`oq bo`l gay.

**Javohir ALIMOV,**
**6-umumta`lim maktabining 11-sinf o`quvchisi.**




*Доимо кўзлари меҳрла-боққан,*
*Опамга, укамга, ҳаммага ёққан,*
*Ишлари ораста, доимо чаққон,*
*Мен мушфиқ онамни ҳожи қиламан.*

*Гул умрини гулга ўрайман,*
*Яхшиликлар, бахтлар тилайман.*
*Оллоҳимдан умр сўрайман,*
*Меҳрибон онамни ҳожи қиламан.*

*Инсонни қийнайди айрилиқ, фироқ,*
*Мен буни ўйласам босади титроқ.*
*Ҳеч қачон онамдан бўлмайин йироқ,*
*Жаннатим онамни ҳожи қиламан.*

*Райҳона ХУРРАМОВА,*
*14-мактабнинг 9-синф ўқувчиси.*

# ҚАДРДОНИМ МАКТАБИМ

***Мактабим менинг иккинчи масканим. Унга гўдак онасига талпингандек ошиқаман. Зеро, у қўлларимдан аста тутиб, билим, идрок, ақл ва одоб-ахлоқ тушунчаларини берди. Дўстларим кўпайди, дардкашларим ва суянадиганларим бисёр.***



Бу даргоҳ билан боғлиқ хотираларим хаёлимда мангу муҳрланиб қолган. Устозларнинг бизга берган беминнат билимлари, қизларнинг сочидан тортиб қилган ҳазилларимиз, биринчи муҳаббат, севги мактублари... Синфдошларим билан тоғ ён бағирларидан лола-қизғалдоқлар териб, қизларга тақдим қилганимиз.

Ҳозир ҳам синфдошларим ёнимда қалқон. Ҳаммалари бир-биридан қувноқ ва меҳрибон. Мен улар билан доимо биргаман ва қанча ҳодисаларни бошимдан ўтказдим. Шодлик, қайғу, жанжал, илк муҳаббат кечинмалари ва ҳоказо...

Мактабни тамомлаётган чоғимда эса барча воқеалар кўз ўнгимда гавдаланар, беихтиёр кўзимга ёш қалқиди!.. Ичимда бир садо жаранглар, қулоқ тутсам: “Мактабим сени ташлаб кетгим келмаяпти!” Ҳа, начора болалик онларимиз ўтган ушбу масканни тарк этиш нақадар оғир. Буни таърифлашга ожизман... Вақтлар ўтгани сайин мен бу муқаддас даргоҳни янаям қаттиқроқ соғинаман, қани вақт орқага қайтса-ю, мен мактаб давримга, синфдошларим даврасига қайтсам.

**Сен хотира, онгу-шууримда мангу яшайсан, қадрдон мактабим!**

**Б.ЖЎРАЕВ,** ***14-умумтаълим мактаби она-тили ва адабиёт фани ўқитувчиси.***

# “ЎЗБЕКИСТОН – КИТОБХОНЛАР ЮРТИ”

## ШИОРИ ОСТИДА ТУМАНИМИЗДА ҲАМ “КИТОБХОНЛИК ҲАФТАЛИГИ” УЮШҚОҚЛИК БИЛАН ЎТКАЗИЛДИ

*(Боши 1-бетда)*

Таъкидлаш жоизки, кейинги пайтда туман ҳокими Б.Шукуров ташаббуслари билан ҳам марказимизни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, туман ёшлари орасида китобхонлик маданиятини юксалтиришга қаратилган муҳим вазифалар амалга оширилиб, кутубхоналарнинг маънавий-молиявий аҳволини яхшилашга алоҳида эътибор



қаратилмоқда. Хусусан, “Китобхонлик ҳафталиги” доирасида туман ҳокими Б.Шукуров бир гуруҳ корхона-муассаса раҳбарлари ҳамда китобсеварлар ҳамроҳлигида марказимизга ташриф буюриб, марказ ходимларининг фаъолияти билан яқиндан танишдилар. Бўлиб ўтган тадбир давомида туман ҳокими анъанавий ҳафталик давомида олиб брилган ишлар, маънавий-маърифий жараёнлар билан танишиб, туман миқёсида келгусида китобхонлик маданиятини янада юксалтириш борасида амалга ошириш лозим бўлган вазифалар хусусида маслаҳатларини бериб, кутубхонамизга 600 та турли мазмундаги китобларни беминнат тақдим қилдилар.

**Муҳиддин АБРАЕВ,**
**Бойсун туман АКМ раҳбари.**
**Сафаргул ДЎСТМУРОДОВА,**
**ТерДУ филология факультети, филология ва тилларни ўқитиш ўзбек тили йўналиши 4-курс талабаси.**

# КАРАНТИН ХИЗМАТИ – ДЕҲҚОНГА КЎМАКЧИ

***Республикамиз бўйлаб давом этаётган карантин тадбирларида зараркунандалар тарқалишининг олдини олиш учун боғдорчилик ва деҳқончилик хўжаликлари, шахсий томорқа, корхона, катта йўл бўйлари ва бошқа майдонларда Ўсимликлар карантини ва ҳимояси инспекторлари назорат олиб бораяптилар.***

Фермер ва деҳқон хўжаликлари, аҳоли томорқа ер эгаларига яқиндан ёрдам бериш, уларни қўллаб-қувватлаш ҳамда ўсимликларни ҳар хил зараркунандалардан ҳимоя қилиш каби оммавий кураш ташкиллаштириляпти. Шу билан бирга, мамлакатимизда ўсимликлар карантини тизимини янги босқичга кўтариш, соҳага илм-фан янгиликлари, халқаро амалиёт ва рақамли технологияларни кенг жорий этиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспорти ҳажми ва географиясини янада кенгайтириш чоралари кўрилмоқда. Аҳоли хонадонларидаги карантин объектлари текширилмоқда. Бу тадбирлардан кўзланган мақсад ўсимликлардан мўл ҳосил олиш, экспорт ва импорт ҳажмини кенгайтириш, мамлакатимиз яшил дунёсини авайлаб-асрашдан иборатдир.




**Абдуғани КЕНЖАЕВ,**
**Ўсимликлар карантини ва ҳимояси етакчи мутахассиси.**
**Бахтиёр СОЛАЕВ,**
**инспектор.**

BOYSUN

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashi va tuman hokimligi

BOSH MUHARRIR
Davron ORIPOV

NAVBATCHI:
Azamat G`AFFOROV.

Internet materiallaridan foydalaniladi.

*Gazeta 2012-yil 2-fevral viloyat Matbuot va axborot hududiy boshqarmasida 11-043-raqam bilan ro`yxatga olingan.*
*Indeks: 64622*
*Bahosi kelishilgan narxda.*

ISSN 2181-7073

Hajmi - 2 bosma taboq.
Bichimi A-2
Chop etishga topshirish vaqti - 17 00
Topshirildi - 16 00
***Adadi : 1400***
Buyurtma №

Gazeta sifatiga bosmaxona mas`ul

(t) - tijorat materiali.

*Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.*
*Qo`lyozmalar egasiga qaytarilmaydi, yozma javob berilmaydi.*
*«BOYSUN» gazetasidan materiallarni ko`chirib bosish muharririyat roziligi bilan amalga oshirilishi lozim.*

Gazeta oyiga ikki marta o`zbek va tojik tillarida chop etiladi.

TAHRIRIYAT MANZILI:
190401, Boysun, Zartepa ko`chasi, 37-uy.
Telefonlar: 76-33-51-368, 99-733-06-59
*e-mail: boysun@umail.uz*

Gazeta «Boysun» tahririyati kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Gazeta “Surxon tongi”va “Zarya Surxana” gazetalari bosmaxonasida chop etildi. Manzil:Termiz shahri Shukrona ko`chasi 19-A uy.